

QO'L TO'PICHİ O'QUVCHI YOSHLARNING TEZKORLIK VA CHAQQONLIK JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Tojiboyev Aziz Rahmatilla o‘g‘li

JDPU. Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari
nazariyasi va metodikasi yo‘nalishi 2-kurs magistranti
anvarhasanov111111@gmail.com

***Annotatsiya.** Umumta’lim maktabining 14-16 yosh o‘quvchilarini qo‘l to‘pi o‘yinida tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirish va uni yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy, amaliy asoslangan tavsiyalar berish.*

***Kalit so‘zlar:** yosh qo‘lto‘pichilar, jismoniy tarbiyalash, yugurish,sakrash, tezkorlik, chaqqonlik sifatlari.*

ПУТИ РАЗВИТИЯ БЫСТРОТЫ И ЛОВКОСТИ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ ГАНДБОЛИСТОВ

***Абстрактный.** Предоставление научно-практических рекомендаций по развитию качеств быстроты и ловкости в игре в гандбол у учащихся 14-16 лет общеобразовательной школы и дальнейшему их совершенствованию.*

***Ключевые слова:** юные борцы, физическая подготовка, бег, прыжки, быстрота, ловкость.*

WAYS TO DEVELOP QUICKNESS AND AGILITY PHYSICAL QUALITIES OF HANDBALL STUDENTS

***Abstract.** Providing scientific, practical recommendations on developing the qualities of quickness and agility in the game of handball for 14-16-year-old students of the general education school and further improving it.*

***Key words:** young wrestlers, physical training, running, jumping, quickness, agility qualities.*

KIRISH

Umumta’lim maktablarida yosh qo‘l to‘pi bilan shug‘ullanuvchilarni tayyorlashda sport to‘garaklari va musobaqalarini tashkil qilish va o‘tkazish masalalari dolzarb hisoblanadi.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, milliy genafondni yanada sog‘lomlashtirish, xar tomonlama etuk barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri deb belgilangan. Qisqa muddatda bu sohada olib borilgan keng ko‘lamli amaliy harakatlar o‘z samarasini bera boshlagan.

Ayniqsa bolalar va o‘smirlar sportining ommaviy turlarini keng targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida tub o‘zgarishlar amalgalashirilayotgan bir paytda jismoniy tarbiya va sportni samarali boshqarish va uni jamiyatimiz manfaatlari yo‘lida foydalanish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish taqozo etilmoqda. Bu boradagi faollik milliy ma’naviyatimiz va madaniyatimiz, jumladan, jismoniy tarbiya hamda sport sohasidagi ishlarimizni yuksak darajaga ko‘tarishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbekistonda qo‘l to‘pini rivojlanishida F. Abdurahmonov, Sh. Pavlov, E.Sieytxalilov, O.Abdualimov, J.Akramov, M. Jukov, B. Pikin, V. Ogirenko, M. Sirotenko, M. Magdullin, A. Oleynikov, N. Rahmatov, A. Pantasenko, V. Kaplinskiy, Ye. Golovchenko, V. Konaplev, V. Izaak va boshqa ustoz murabbiylarni mehnatlari juda yuqoridir.

Mavzu bo‘yicha F. Abdurahmonov, Sh. Pavlov, E.Sieytxalilov, O.Abdualimov, J.Akramov, L.P.Matveev, M.Ya.Nabatnikova, V.N.Platonov, F.P.Suslov, V.P.Filin, E.I.Ivakin, A.M.Ivashchenkova, V. Ya. Ignatieva, L. A. Latyshkevich, V. I. Txorev kabi olimlar va yetakchi mutaxassislar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Bugungi kunda qol topi bilan shugullanuvchi o‘quvchilarni har tomonlama, jumladan, jismoniy, texnik-taktik, psixologik hamda jismoniy tarbiyalash bo‘yicha ham ularni mashg‘ulot jarayonida harakat uyg‘unligini ham yuksaltirish va aynan o‘zi shug‘ullanayotgan qo‘l to‘pi sport turidan amaliy ham nazariy bilimlarga ega bo‘lishlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois ushbu masala va muammo yuzasidan nafaqat o‘zbek mutaxassislari balki chet el mutaxassislari ham ko‘plab ilmiy izlanish va ilmiy maqolalari aynan ushbu masalalarga bag‘ishlangan.

NATIJALAR

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quydagilardan iborat;

- 14-16 yosh gandbolchilarining tezkorlik jismoniy sifatlarini rivojlantirish yangi tenologiyalar asosida olib borildi;

- 14-16 yosh gandbolchilarining chaqqonlik sifatini rivojlanishda milliy harakatli o‘yinlardan keng foydalanildi;

- yosh gandbolchilarning tezkorlik va chaqqonlikka oid taktik elementari asoslanndi, ularning o‘ziga xos metodikasi yaratildi va mashq jarayoniga tadbiq etildi;

- ishlab chiqilgan mashqlar majmuyi asosida yosh gandbolchilarning tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini 40-44% ga o‘sdi.

Bevosita olingan natijalarni tahlil qilish asosida uning amaliyotga tadbiq etilishida o‘z ifodasini topdi. Olingan natijalarga ko‘ra 14-16 yosh gandbolchilarni tarbiyalashda tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini oshirishda ularning jismoniy va taktik tayyorgarligi bilan birgalikda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari pedagog va murabbiylardan o‘z kasbini yetuk mutaxassisib bo‘lishdan tashqari psixologik va pedagogik bilim va tajribaga ega bo‘lishi kerak.

MUHOKAMA.

Umumta’lim maktabida qol to‘pi bilan shug‘ullanuvchi o‘quvchi-sportchilar bilan olib borilgan suhbatlar mashqlar va treninglar ijobiy natija berilganligi aniqlandi. Olib borilgan ilmiy ishlar natijasidan shu narsa ayon bo‘ldiki, qo‘l to‘pi bilan shug‘ullanuvchi to‘garak mashg‘ulotlarini tashkillashda, musobaqalar o‘tkazishda, o‘quv trenirovka jarayonlarida umumta’lim maktablari o‘quvchilarini tezkorlik va chaqqonlikka oid o‘quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratishda, umumta’lim mакtab dasturini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

14-16 yosh **qo‘l to‘pichilar** tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini mashg‘ulotlar orqali yanada takomillashdi

- jismoniy yuklamalarni to‘g‘ri va samarali tarzda olib borilsa;
- jismoniy va texnik tayyorgarligi rivojlantirilsa;
- mashg‘ulot jarayonida turli pedagogik metodlarni qo‘llanilsa;

14-16 yosh **qo‘l to‘pichilariga** xos texnik harakatlanish tezligi va chaqqonligini to‘p uzatish aniqligini birgalikda shakllantiruvchi maxsus vaziyatli mashqlar majmuasini ishlab chiqilsa;

Yuqoridagilar 14-16 yosh gandbolchilarning tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlanish dinamikasini rejalashtirish va nazorat qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, o‘yinda turli funktsiyalarni bajaradigan yosh o‘yinchilarning tayyorgarligidagi farqlar va o‘xshashliklarni bilish ularning takomillashtirish o‘ziga xos ravishda rivojlantirish imkonini beradi. Qolaversa, murabbiy gandbolchilarning tayyorgarligidagi xususiyatlari qaysi yoshda aniqlanganligini, yosh qolto‘pichilarning tezlik, chaqqonlik jismoniy holatining o‘sishini qaysi mezonlarga ko‘ra nazorat qilishini bilishi kerak.

XULOSA.

Maktabdagi gandbol darslarida reaktsiya qilish vaqtini oldindan shartlashilgan turli-tuman signallarga reaktsiya qilishni talab qiluvchi (masalan, to‘xtalishlar bilan bajariladigan erkin yugurishlar yoki o‘qituvchi signali, buyrug‘i bilan yugurish yo‘nalishini o‘zgartirish) mashqlarni yordamida rivojlantiriladi. Sport o‘yinlari reaktsiya qila olish va uni tarbiyalaydigan eng yaxshi vositadir.

Yosh gandbolchilar tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirichda o‘yin va mashg‘ulot jarayoniga tayyorlashda harakat uyg‘unligini, texnik tayyorgarligini oshirishda:

- jismoniy yuklamalarini to‘g‘ri va samarali tarzda olib borish;
- jismoniy va texnik tayyorgarligi rivojlantirish;
- mashg‘ulot jarayonida turli pedagogik metodlarni qo‘llash;

Yosh gandbolchilarga xos texnik harakatlanish tezligi va to‘p uzatish aniqligini birgalikda shakllantiruvchi maxsus vaziyatlari mashqlar majmuasini ishlab chiqilsa va uni tizimli ravishda olib borilsa ijobiy natija beradi.

Tezkorlik deganda, individ harakatlarining tezlik xarakteristikasi, asosan harakat reaktsiyasining vaqtini belgilovchi funktsional xususiyatlarning kompleksi tushuniladi. Tezlikni namoyon bo‘lishining uchta asosiy shakli bor:

1. Yakka harakat tezligi (kichiq tashqi qarshilikni engish bilan);
2. harakatlar chastotasi;
3. harakatlar reaktsiyasi tezligi (yashirin latent davri).

Tezkorlikning eng sodda shakllarining namoyon bo‘lishi bir-biriga aloqador emas. Ayniqsa bu reaktsiya vaqtiga bog‘liq bo‘lib, ko‘p hollarda harakat tezligi ko‘rsatkichlari bilan korrelyatsiya qilinmaydi. Tezlikning namoyon qilinishini qayd etilgan uchta shaklining umumlashmasidan (qo‘shilmasidan) aniqlash mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Pavlov Sh.K., Abdurazmanov F.A. Gandbol. Darslik. T., 2005.
2. Pavlov Sh.K., Abdalimov O.X., Matxalikov I.I. Gandbol. Musbaqa qoidalari, ularni tashkil etish va o‘tkazish tizimi. T., 2014.
3. Pod redaksiey A.I. Yaroskogo. Podgotovka gandbolistov. Uchebnoe posobie. T., 1992.
4. Salomov R.S. Sport mashg‘ulotining nazariy asoslari. O‘quv qo‘llanma. T., 2007.
5. A.T.Hasanov va R.M.Toshpo‘latov 2022. UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARDA Jismoniy tarbiya VA SPORTNI RIVOJLANISH

METODIKASINI TAKMORLASH. Akademik tadqiqotlar va ta'lim fanlari tendentsiyalari jurnali . 1, 7 (2022 yil iyun), 95–99.

6. Hasanov AT, Mamanazarova AB OILADA BOLALARNI SOG'lom turmush tarzini shakllantirish USULLARI //O'quv fanlaridagi akademik tadqiqotlar va tendentsiyalar jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 7. – S. 6-9.

7. Hasanov A. T., Mamanazarova A. B. WRESTLING PREPARATION PROCESS IN SPORTS SCHOOLS //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 3. – C. 174-176.

8. Hasanov, A. T., S. D. Akzamov, and D. T. Abduraimov. "Pedagogical technology in professional-practical physical training of students of the faculty of military education." INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.10 (2022): 148-156.

9. Hasanov A. Primary school students training movement games in physical education classes: primary school students training movement games in physical education classes //Физическое воспитание, спорт и здоровье. – 2022. – Т. 2. – №. 2.